



www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 1-SON

HUMANSCIENCES.UZ

№ 1 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.

E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co

ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Professor.

E-mail: docravshanniyazov@gmail.com

ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

O'zbekiston.

E-mail: z.sanakulov@cspu.uz

ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-mail: b_muxammed@karsu.uz

ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru

ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru

ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz

ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru

ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru

ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Suyarov Maxmudjon

YUNON-BAQTRIYA PODSHOLIGI TARIXINI YORITUVCHI YOZMA MANBALAR

TAHLILI.....5-10

Azimova Maftuna

FARG'ONA VODIYSIDA O'TISH DAVRI BOSQICHLARIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING
MODDIY-TEXNIK HOLATI.....

11-17

Турдумуратов Янгибой

ХОЗЯЙСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ СКОТОВОДОВ СУРХАН-ШЕРАБАДСКОГО ОАЗИСА ПО
ЭТНОТЕРРИТОРИАЛЬНОМУ РАСПОЛОЖЕНИЮ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

18-25

07.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Abduraxmanova Laylo

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KADRLAR RESURSLARINI BOSHQARISH TIZIMINI

TAKOMILLASHTIRISH.....26-31

Hamrayev Abdulkofiz

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA UNING INSON RESURSLARI MENEJMENTIGA

TA'SIRI.....32-36

Turg'unov Muxriddin, Maxammadov Diyorbek

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI

TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TAHLILNING AHAMIYATI37-43

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Eshiniyazov Berdiniyaz

DAVLAT BOSHQARUVIDA AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISHNING

STRATEGIK AHAMIYATI44-52

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES*Article / Original Paper***YUNON-BAQTRIYA PODSHOLIGI TARIXINI YORITUVCHI YOZMA MANBALAR TAHLILI****Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li**

Oriental Universiteti tayanch doktoranti

Email: suyarovmahmud2@gmail.com

Tel: +998 93 806 56 61

ORCID: 0009-0002-2187-1051

Annotatsiya. Mazkur maqolada antik davrning muhim ellinistik davlatlaridan biri bo'lgan Yunon-Baqtriya podsholigi tarixini yorituvchi yozma manbalar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda yunon va rim tarixchilarining asarlari – Strabon, Arrian, Polibiy, Pompey Trog, Yustin, Diodor, Katta Pliniy hamda Plutarx kabi mualliflarning asarlarida uchraydigan Yunon-Baqtriya o'ld ma'lumotlar ilmiy asosda o'rganiladi. Shuningdek, Hindiston va Xitoy yozma manbalari (Yuga Purana, Milinda-panha, Xanshu, Sima Syan va Chjan Syan ma'lumotlari) orqali podsholikning mintaqaviy va xalqaro aloqalari yoritiladi. Yunon-Baqtriya davlati mustaqil, qudratli ellinistik davlat sifatida Sharq va G'arbni bog'lovchi muhim siyosiy hamda madaniy markaz bo'lganligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: ellinizm, Strabon, Polibiy, Pompey Trog, Yustin, antik, arxeologik manbalar, numizmatika, epigrafika, Menandr, Diodot I.

ANALYSIS OF WRITTEN SOURCES ON THE HISTORY OF THE GRECO-BACTRIAN KINGDOM**Suyarov Makhmudjon Sobirjon og'li**

Doctoral student at the Oriental University

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the written sources illuminating the history of the Greco-Bactrian Kingdom, one of the major Hellenistic states of the ancient period. The study examines scholarly information on Greco-Bactria found in the works of Greek and Roman historians, including Strabo, Arrian, Polybius, Pompeius Trogus, Justin, Diodorus, Pliny the Elder, and Plutarch. In addition, the regional and international relations of the kingdom are explored through Indian and Chinese written sources, such as the Yuga Purana, Milinda-panha, Hanshu, Sima Qian, and Zhang Xuan. It is established that the Greco-Bactrian state, as an independent and powerful Hellenistic kingdom, functioned as an important political and cultural center connecting East and West.

Keywords: Hellenism, Strabo, Polybius, Pompeius Trogus, Justin, antiquity, archaeological sources, numismatics, epigraphy, Menander, Diodotus I.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i1v2y2026/n01>

Kirish. Yunon-Baqtriya podsholigi tarixini o'rganishda antik yozma manbalar muhim o'rin tutadi. Xususan, Arrian, Strabon, Polibiy, Pompey Trog, Yustin, sitsiliyalik Diador va Katta Pliniy kabi yunon-rim mualliflarining asarlarida Baqtriya hududi, uning siyosiy ahvoli, geografik o'rni va harbiy-siyosiy jarayonlari haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Ushbu mualliflarnig asarlari orqali Yunon-Baqtriya davlatining Salavkiylar bilan munosabatlari, mustaqillik uchun olib borilgan kurashlari jarayonlari ham yoritilgan. Menandr davriga oid

hind manbalarida uchraydigan ma'lumotlar bu davlatning faqat Markaziy Osiyo bilan cheklanib qolmaganligini, balki hind sivilizatsiyasi bilan ham uzviy aloqada bo'lganligini tasdiqlaydi. Xan sulolasi davriga oid Xitoy solnomalari esa boshqa bir Sharq yozma manbasi hisoblanib, davlat tarixini tiklashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yunon-Baqtriya podsholigi haqida ma'lumot beruvchi yozma manbalar qatorida yunon va Rim tarixchilarining asarlari eng muhim yozma manbalar qatorida turadi. Shunday bo'lsa-da, yozma manbalarning tarqoq holda yetib kelganligi va ba'zi mualliflarning subyektiv yondashuvi sababli Yunon-Baqtriya tarixini to'liq anglash uchun arxeologik materiallar, numizmatik topilmalar va epigrafik manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi davrda yashab o'tgan tarixchilar Yunon-Baqtriya podsholigiga atab maxsus, to'liq bag'ishlangan asarlar yozishmagan. Biroq, ular qoldirgan asarlarda ushbu davlat haqida ayrim muhim ma'lumotlar bilvosita keltirilgan ya'ni mavjud asarlardagi asosiy mavzuga aloqador xabarlar orasida ushbu podsholik tarixiga oidlari ham mavjud.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yunon-Baqtriya podsholigi tarixini o'rganishda antik davr yozma manbalari muhim ilmiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu davlat tarixiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yunon, rim, hind va xitoy mualliflarining asarlari tahlil qilindi. Ularning aksariyati Yunon-Baqtriya podsholigiga maxsus bag'ishlangan bo'lmasa-da, asarlarning turli bob va qismlarida davlatning siyosiy, geografik, madaniy rivoji haqida muhim xabarlar keltirilgan. Yunon-Baqtriya podsholigi tarixiga oid yozma manbalar qatoriga Strabonning "Geografiya", Arrianning "Aleksandr anabasisi", Polibiyning "Tarixlar", Yustining "Filippga oid tarixiy asarlarning qisqartirilgan bayoni" (Epitoma Historiarum Philippicarum), Pompey Trogning "Filipp tarixi", Katta Pliniyning "Tabiiy tarix", Diodorning "Tarixiy kutubxona" va boshqa asarlarni keltirish mumkin.

Mazkur maqolani yozishda qiyosiy-tahliliy, manbashunoslik, tarixiy-tanqidiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, turli madaniy an'analar (yunon, sharq va hind) o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlari baholandi. Ushbu metodologik yondashuv Yunon-Baqtriya podsholigi tarixini yanada xolis va ilmiy asoslangan tarzda yoritish imkonini berdi.

Natijalar(Results). Yunon-Baqtriya podsholigi tarixini yoritishda antik davr yozma manbalari muhim, biroq qisqa bo'lgan axborotni taqdim etadi. Shunga qaramay, ushbu asarlar orqali podsholikning siyosiy shakllanishi, hududiy joylashuvi, tashqi siyosati, madaniy taraqqiyoti va inqiroz jarayonlari haqida muhim ilmiy natijalarga ega bo'lish mumkin. Yunon-Baqtriya podsholigi tarixi asosan arxeologik topilmalar ya'ni moddiy manbalar yordami bilan tiklanadi. Bunday manbalar qatoriga biz numizmatika fani ashyosi bo'lgan tangalar (masalan, Oyxonim yodgorligidan topilgan), xo'jalik buyumlari va san'at asarlari hisoblanadigan suratlar, haykallarni kiritishimiz mumkin. Shunday bo'lsa-da, podsholik tarixini yoritadigan ba'zi yozma manbalar ham borki, ular yordamida davlat tarixini tiklash yanada osonlashadi.

Muhim manbalar qatoriga miloddan avvalgi I asrda yashab o'tgan yunon tarixchisi Strabonning "Geografiya" asarining XI kitobi qator boblarida keltirilgan geografik va siyosiy ma'lumotlarni, XV kitobi ayrim qisimlarini, miloddan avvalgi II asrda yashagan yunon tarixchisi Arrianning "Aleksandr anabasisi" asari, miloddan avvalgi II asrda yashagan boshqa bir yunon tarixchisi Polibiyning "Tarixlar", rimlik tarixchi Yustining " Epitoma Historiarum Philippicarum", asari Pompey Trogning "Filipp tarixi" asari, miloddan avvalgi I asrda yashagan Katta Pliniyning "Tabiiy tarix" asari va miloddan avvalgi I asrda yashagan boshqa sitsiliyalik tarixchi Diodorning "Tarixiy kutubxona" asarlarini qo'shishimiz mumkin. Antik tarixchilar

tomonidan qoldirilgan ma'lumotlar mazmunan boy bo'lsa-da, ular yagona va uzluksiz tarixiy haqiqatni shakllantirish uchun yetarli emas. Shu bois ushbu manbalarni tanqidiy tahlil qilish, ularni o'zaro qiyoslash va moddiy manbalar bilan solishtirish lozim hisoblanadi.

Muhokama(Discussion). Yunon-Baqtriya podsholigi tarixini tiklashda yozma manbalar cheklangan bo'lishiga qaramay, ular arxeologik, numizmatik va epigrafik manbalar bilan uyg'un holda qo'llanilganda muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Antik mualliflar asarlarida keltirilgan ma'lumotlar Yunon-Baqtriya davlatining siyosiy qudrati, hududiy kengayishi, xalqaro munosabatlari va madaniy taraqqiyotini aniqlashda muhim manba vazifasini bajaradi. Antik mualliflarning asarlarida Yunon-Baqtriya podsholigi mustaqil ellinistik davlat sifatida e'tirof etilgan. Ushbu manbalar orasida Strabonning "Geografiya" asari alohida o'rin tutadi. Asarning XI qismi quyidagicha nomlanadi: Книга XI (Кавказ, Гиркания, Парфия, Бактрия, Мидия, Армения). Shundan ma'lumki, asarda davlat hududi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, XI bobda Baqtriyaning geografik joylashuvi, uzoq vaqt mobaynida poytaxt shahar hisoblangan Baqtra (keyinchalik nomi Balxga o'zgargan deya taxmin qilinadi), Yunon-Baqtriya podsholigi, Parfiya-Baqtriya munosabatlari, Diodotlar, Yevkratidlar sulolalari, Parfiyadagi Arshakiylar sulolasi siyosiy jarayonlar, savdo yo'llari va aholining etnik tarkib haqida muhim faktlar keltirilgan. Ayniqsa, kitobning ushbu qismi I-XIV boblarini Baqtriya haqida boy tarixiy manba hisoblanadi [11].

Asarning XV qismida (Книга XV (Индия, Ариана, Персия)) ham ma'lumotlar uchraydi. Xususan, Hindiston hududi va Baqtriya o'rtasidagi munosabatlar, geografik ma'lumotlar, savdo yo'llari haqidagi ma'lumotlar qisman mazkur podsholikka aloqador hisoblanadi. Yunon-Baqtriya podsholigi Salavkiylar davlatidan ajralib chiqqan mustaqil sulola sifatida ko'rsatiladi. Diodot I va uning vorislarining qudrati haqida yoziladi. Baqtriya podshohlari hatto Hindistongacha yetib borganligi qayd qilingan. Strabon Apollodor Artemidalikning yo'qolgan "Parfika" asariga tayanib, Yunon-Baqtriya hukmdorlari "Aleksandr Makedonskiydan ham ko'proq qabilalarni bo'ysundirganini", xususan Menandr faoliyatini ta'kidlaydi. Asarda Baqtriya hududi serhosil, strategik va savdo yo'llari kesishgan muhim mintaqasi sifatida tasvirlangan. Ushbu ma'lumotlar Yunon-Baqtriya davlatining iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchli bo'lganligini tasdiqlaydi. Strabon Yunon-Baqtriya davlatining hududiy kengayishi va siyosiy qudratini eng aniq ifodalagan mualliflardan biri hisoblanadi. Strabonning "Geografiya" asari Yunon-Baqtriya tarixini o'rganishda asosiy tayanch manba sifatida baholanishi mumkin. Biroq uning turli hukmdorlarni bir-biridan asossiz ustun qo'yuvchi baholari muallif foydalangan manbalarning subyektivligini ham ko'rsatadi. Shu sababli Strabon bergan ma'lumotlar boshqa antik mualliflar va arxeologik dalillar bilan qiyosiy tahlil qilinishi lozimdir. Yana bir "Geografiya" nomli asar Klavdiy Ptolemey tomonidan yozilgan bo'lib, unda mintaqaning geografik joylashuvi va shaharlari haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [7].

Miloddan avvalgi II asrda yashab o'tgan yunon tarixchisi Polibiyning "Tarixlar" (Historiai) asarida ham Yunon-Baqtriya podsholigi haqida qisman ma'lumotlar keltiriladi. Asarda Yunon-Baqtriyaning Salavkiylar davlati bilan munosabatlari haqida ma'lumotlar mavjud. Chunonchi, Salavkiylar podshosi Antiox III ning miloddan avvalgi 209-206-yillar oralig'ida Baqtriyaga yurishi tafsilotlarini keltiradi. Yevtidem I ni tajribali siyosatchi, mohir diplomat sifatida tasvirlaydi. Chunki u birinchi navbatda o'z davlati hududiga bostirib kelgan qo'shni davlat podshosining uch yil davom etgan Baqtra qamaliga qarshi mudofaani tashkil eta oladi. Bundan tashqari u o'zining diplomatik mahoratidan foydalanib Antiox III ni ortga qaytib

ketishiga majbur qila oldi. Uni ikki davlat chegaralarida ko'chmanchi qabilalar hujumga shay turganligi, agar qamalni to'xtatib, sulh tuzmaydigan bo'lsa har ikki tomon ham og'ir ahvolda qolishi mumkinligiga ishonтира olgan. Antiox III Yevtidemni tan olib, uni Baqtriya podshohi sifatida qoldiradi [10]. Polibiy Yunon-Baqtriyaning xalqaro diplomatik maqomini ko'rsatib bergan mualliflardan hisoblanadi. Polibiyning asari nisbatan ishonchli va voqealarga real siyosiy nuqtai nazardan yondashgani bilan ajralib turadi. Shu jihatdan Polibiy ma'lumotlari davlatning mustaqil siyosiy subyekt sifatidagi maqomini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Rimlik tarixchilar Pompey Trogning "Filipp tarixi", Yustining "Filippga oid tarixiy asarlarning qisqartirilgan bayoni" (Epitoma Historiarum Philippicarum), asarlari bir-birini takrorlaydi. Chunki Yustin o'z asarida Pompey Trog ma'lumotlaridan keng ravishda foydalanganligini qayd etib o'tgan. Pompey Trogning "Filipp tarixi" asari asl matni esa saqlanib qolmagan. Ushbu asarlarda Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi, taraqqiy etganligi, inqirozi haqida umumiy tarixiy ma'lumotlarni keltirib o'tishgan. Yustin o'z asarida Diodot I ning Salavkiylar imperiyasidan ajralib chiqishi va Yunon-Baqtriya davlatiga nisbatan "ming shaharga ega" iborasining ishlatilishi Yunon-Baqtriya podsholigining iqtisodiy va urbanistik taraqqiyot darajasini aks ettiradi. Ushbu tarixiy manbalarda Diodotlar va Yevtidemlar sulolalari haqida qisqa xabarlar keltirilgan bo'lib, saklar va yuechjilar bosqini natijasida davlatning zaiflashuvi jarayonlari qisman yoritib o'tilgan [4]. Ularning asarlari orqali biz Yunon-Baqtriya podsholigining umumiy tarixi haqida qisman xabardor bo'lamiz. Pompey Trog va Yustinning asarlari Yunon-Baqtriya tarixini qisqartirilgan shaklda yoritgan bo'lsa-da, ular davlatning umumiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashda muhimdir. Ularning ma'lumotlari orqali Yunon-Baqtriya podsholigining kuchayishi va ko'chmanchi qabilalar bosqini natijasida yuzaga kelgan inqiroz jarayonlarini kuzatish mumkin.

Milodiy I asrda yashagan Katta Pliniyning "Tabiiy tarix" (Naturalis Historia) asarida Baqtriya va So'g'diyona hududida mavjud bo'lgan shahar nomlari, savdo yo'llari, podsholikning geografik o'rni haqida ma'lumotlar keltirgan. U yunon shahar madaniyatining Sharqda keng miqyosda tarqalganini qayd etadi [6]. Bu esa o'z navbatida ellinistik jarayonlarning jadal ravishda rivojlanganligini isbotlovchi dalil hisoblanadi. Pliniyning ma'lumotlari iqtisodiy va geografik tahlil uchun muhim ahamiyatga egadir.

Milodiy II asrda yashagan Arrianning "Aleksandr anabasisi" (Anabasis Alexandri) ham muhim tarixiy ahamiyatga ega asarlardan biri hisoblanadi. Unda bevosita Yunon-Baqtriya podsholigi haqida ma'lumotlar keltirilmasa-da, Baqtriyaning harbiy-strategik jihatdan ahamiyatga ega hudud ekanligi, yunon-makedon aholi joylashuvi haqida ma'lumotlar keltirilgan [1]. Shu tufayli Arrian asari Yunon-Baqtriya davlatining tarixiy ildizlarini tushunish uchun muhim manba sifatida e'tirof etiladi.

Miloddan avvalgi I asrda yashagan sitsiliyalik Diodor mashhur "Tarixiy kutubxona" (Bibliotheca historica) asarini yozib qoldirgan. Asarda Aleksandr Makedonskiy hukmronlik davridan keyingi Sharq viloyatlaridagi siyosiy jarayonlar birma-bir yoritilgan bo'lib, Baqtriyaning alohida siyosiy hudud sifatida shakllanishi, yunon-makedon harbiy va ma'muriy an'analarining saqlanganligi hodisalari bayon qilingan [3]. Diodor Yunon-Baqtriyaning ellinistik dunyoning ajralmas tarkibiy qismi sifatida tasvirlaydi.

Yunon-Baqtriya podsholigi tarixini yorituvchi manbalar qatoriga hind manbalarini ham kiritishimiz mumkin. Chunki davlatning qudratli hukmdorlaridan biri bo'lgan Demetrey davrida Hindistonning shimoli-g'arbiy qismidagi katta hududlar zabt etiladi. Shu tariqa Yunon-

Baqtriya davlatining tarmog'i, tarkibiy qismi sifatida Hind-Yunon davlati paydo bo'ladi. Tabiiyki, ushbu davlat haqida mahalliy manbalarda ham boy tarixiy ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Shunday asarlar qatoriga "Yuga Purana" [9] va "Milinda-panha" kabilarni kiritishimiz mumkin. Ushbu kitoblarda mazkur davlatning yunon va Sharq madaniyati sintezi bilan ajralib turganligi, Menandr kabi hukmdorlar davrida yuksak taraqqiyotga erishganligi, keyinchalik esa ko'chmanchi qabilalar hujumi natijasida tanazzulga yuz tutganligi voqealari aks etgan. "Yuga Purana" asarida yunonlarning Hindistonga yurishlari haqida xabar berilgan bo'lsa, Milinda-panha ("Milinda savollari") asarida Hind-yunon davlati podshosi Menandr bilan buddaviy rohib Nagasena o'rtasidagi falsafiy muloqot aks ettirilgan [5]. Milindapanha asari Yunon-Baqtriya davlati qulaganidan keyin ham faoliyat yuritgan Hind-yunon davlatining keyingi tarixiy taraqqiyotini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buddaviylikka oid Milindapanha asarida Menandr (Milinda) shaxsi markaziy o'rin egallaydi. Asar diniy-falsafiy mazmunga ega bo'lsa-da, u Hind-yunon hukmdorlari haqida muhim tarixiy ma'lumotlarni ham beradi.

Yunon-Baqtriya davlati haqida ma'lumot beruvchi boshqa Sharq manbalari qatoriga xitoylik mualliflarning asarlarini qo'shishimiz mumkin. Tarixchi Sima Syan [8] qisman Chjan Syan ma'lumotlariga tayanib o'zining "Tarixiy yilnomalar" nomi solnomasini yozgan. Ma'lumki, Chjan Syan miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida mashhur safari natijasida Buyuk Ipak yo'liga asos solgan edi. U o'z missiyasi doirasida qadimiy Baqtriya davlati hududlariga ham kelgan edi. Davan davlatidan so'ng Yunon-Baqtriya davlati sarhadlariga ham tashrif buyurgan ushbu elchi davlatning hukmronligi so'nggidagi inqirozli davrga guvoh bo'lgan. Xitoy manbalarida uchraydigan "Daxiya" geografik atamasi Baqtriya davlatining boshqa bir nomi sifatida talqin qilinadi. Xan sulolasi davriga oid "Xanshu" manbasida "Daxiya" (Baqtriya) davlati, uning aholisi va savdo aloqalari haqida muhim ma'lumotlar berilgan [2]. Ushbu ma'lumotlar mintaqaning iqtisodiy va siyosiy holatini yoritishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa(Conclusion). Mazkur maqola antik davr yozma manbalari asosida Yunon-Baqtriya podsholigi tarixini yoritish imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlashga qaratildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Yunon-Baqtriya davlati antik tarixchilar asarlarida izchil tarzda yoritilmagan bo'lsa-da, yozib qoldirilgan mavjud ma'lumotlar ushbu ellinistik davlat tarixini tiklashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Strabon, Polibiy, Arrian, Pliniy Katta, Pompey Trog, Yustin va Diodor kabi mualliflarning asarlarida Yunon-Baqtriya podsholigi Sharq va G'arb o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarda muhim o'rin tutgan davlat sifatida tasvirlanadi. Antik davr tarixchilarining asarlarida Yunon-Baqtriya davlati mustaqil va qudratli ellinistik davlat sifatida, Sharq va G'arbn bog'lovchi madaniy va siyosiy ko'prik vazifasini o'tagan, Hindiston bilan faol aloqada bo'lgan davlat sifatida tasvirlanadi. Yunon-Baqtriya podsholigi tarixini yoritishda antik yozma manbalar muhim asos bo'lsa-da, ularning uzuq-yuluq va bilvosita xarakteri ushbu davlat tarixini to'liq tiklash imkonini bermaydi. Shu bois Yunon-Baqtriya tarixini ilmiy jihatdan to'laqonli yoritish uchun yozma manbalarni arxeologiya, numizmatika va epigrafika kabi yordamchi tarix fanlari yutuqlari bilan uyg'un holda tahlil qilish zarur. Faqat shundagina Yunon-Baqtriya podsholigining ellinistik dunyodagi haqiqiy o'rni va tarixiy ahamiyatini chuqur va asosli ravishda ochib berish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Arrian. Anabasis Alexandri / The Anabasis of Alexander. Loeb Classical Library, Harvard University Press, 1976.

2. Ban Gu. Hanshu (Book of Han). Translated by Homer H. Dubs, 2 vols. Chicago: University of Chicago Press, 1938–1955.
3. Diodorus Siculus. The Library of History. Translated by C.H. Oldfather. Loeb Classical Library, Harvard University Press, 1933–1967.
4. Justin. Epitome of the Philippic History of Pompeius Trogus. Translated by J.C. Yardley. Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
5. Milinda-panha (The Questions of King Milinda). Translated by T.W. Rhys Davids. London: Oxford University Press, 1890.
6. Pliny the Elder. Natural History. Translated by H. Rackham. Loeb Classical Library, Harvard University Press, 1938.
7. Ptolemaeus, Claudius. Geographia. Book VI, Chapter 11 (Bactria). Princeton University Press, 2000.
8. Sima Qian. Shiji (Records of the Grand Historian). Translated by Burton Watson. Columbia University Press, 1993.
9. Yuga Purana. In: The Puranas, Translated by R.C. Hazra. Delhi: Motilal Banarsidass, 1962.
10. Полибий. Всеобщая история (Historiae). Кн. X–XI, фрагменты. — М.: Наука, 1987.
11. Страбон. География: в 17 кн. / пер. с древнегреч., вступ. ст. и коммент. Г. А. Стратановского. — М.: Наука, 1964. Кн. XI–XV.

HUMANSIENCES.UZ

№ 1 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com